

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 132 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
S.S. Ismailov	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	



OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Sherov Alisher Bakberganovich

Ma'mun universiteti Iqtisodiyot kafedrası mudiri, PhD

Annotatsiya: Inson kapitali mamlakat iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligining asosini tashkil etishi bir qator olimlar tomonidan ta'kidlab kelinmoqda. Mazkur tadqiqot ishida ta'limning iqtisodiyot va uning rivojlanishiga ta'sirining turli jihat-lari ko'rib chiqiladi, shuningdek, ushbu sohadagi mavjud global tendensiyalar tahlil qilinadi hamda taqqoslanadi, tadqiqot natijalari yuzasidan ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, ta'lim, raqamlashtirish, innovatsiya, YaIM, ta'limni moliyalashtirish, investitsiyalar, byudjet xara-jatlari, aholi ta'lim darajasi.

Abstract: A number of scientists emphasize that human capital is the basis of economic development and stability of the country. This research paper examines various aspects of the impact of education on the economy and its development, and analyzes and compares modern world trends in this area, based on the research results, scientific conclusions and recommendations are developed.

Key words: economy, education, digitalization, innovation, GDP, education financing, investments, budget expenditures, educational level of the population.

Аннотация: Ряд ученых подчеркивает, что человеческий капитал является основой экономического развития и стабильности страны. В данной исследовательской работе рассматриваются различные аспекты влияния обра-зования на экономику и ее развитие, а также анализируются и сравниваются современные мировые тенденции в этой сфере, на основе результатов исследования разрабатываются научные выводы и рекомендации.

Ключевые слова: экономика, образование, цифровизация, инновации, ВВП, финансирование образования, инвестиции, бюджетные расходы, уровень образования населения.

KIRISH

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish sharoitida rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyotida oliy o'quv yurtlarida ishlab chiqilgan innovatsion ishlanmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mazkur mam-lakatlar shu boisdan ham imkon qadar ko'proq fuqarolarga oliy o'quv yurtlariga kirish imkoniyatini berishadi. Buning asosiy sababi, birinchidan, aholining ziyoli qatlamini kengaytirishga intilayotgan mamlakatlarning ta'lim tizimidan andazalar oladi. Har qanday sohadagi, xoh u kasbiy, xoh siyosiy bo'lsin, jarayonlar qanday tashkil etilganligi to'g'risida malakali fikrga ega bo'lmasdan turib ovoz berish yoki biron bir g'oyani, yo'nalishni himoya qilish mumkin emas.

Ikkinchidan, ta'lim bevosita tarbiya, ma'naviyat va har bir millatning madaniyati bilan birga olib bori-lishi natijasida mamlakat aholisi orasida ilm bilan birgalikda shu millatning madaniy me'rosi, urf-odat-lari, an'analari va axloqi ham targ'ib etiladi. Bu bizga aholining salohiyatini nafaqat bilim jihatdan, balki odob va axloq jihatdan ham yaxshilash, uni sog'lomlashtirish va qadriyatlarni hurmat qilishni rivojlantirishga ham imkon beradi. Uchinchidan, hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida inson kapitali muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Jumladan, O'zbekistonda milliy boylik tarkibida inson kapitali ko'rsatkichining ulushi 62 % ni tashkil qilgani holda, jahon banki mutaxassislarning fikriga ko'ra, dunyo mamlakatlari bo'yicha milliy boylik tarkibida jismoniy kapitalning ulushi o'rtacha 16 % ni, tabiiy kapital - 20 % ni, inson kapitali - 64 % ni tashkil etadi (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya singari taraqqiy etgan mamlakatlarda milliy boylik tarkibida inson kapitali ulushi 80% ga yetadi) [1].

Dunyo tajribasi va amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, aynan inson kapitaliga investitsiya yo'naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlar yuksak taraqqiyotga erishmoqda. Chunonchi, rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbi-yasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Jumladan, AQSHda bitta ta'lim oluvchi uchun ta'limning to'liq sikliga sarflangan sarmoya 231,0 ming AQSH dollarini tashkil etsa, bir xodim yaratadigan qo'shimcha qiymat-ni miqdori 3,1 mln AQSH dollarini tashkil etadi. JanubiyKoreyada esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 130 ming va 2,1 mln AQSH dollarini tashkil etadi. Mamlakatimizdagi ushbu ko'rsatkichni tahlil etadigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlardan o'rganishimiz lozim bo'lgan ko'p jihatlar mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan,



O'zbekistonda bitta ta'lim oluvchi uchun ta'limning to'liq sikliga sarflangan sarmoya 19,0 ming AQSH dollarini tashkil etgan holda, bir xodim yaratadigan qo'shimcha qiymatning miqdori 77,0 ming AQSH dollarini tashkil etadi. Agar yuqoridagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, AQSH va Janubiy Koreyada bir ishchi kuchini shakllantirishga ketgan xarajat o'zini 13-17 karra oqlagani holda, O'zbekistonda sarflangan sarmoyaning jamiyatga keltiradigan foydasi atigi 4 barobarni tashkil etadi [2].

Albatta, inson kapitalining asosini ta'lim tizimi tashkil etishini hisobga olgan holda, har bir mamlakat uchun mazkur sohani rivojlantirish qay darajada muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu boisdan ham yurtboshimiz mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish, miqdor ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichiga o'tish lozimligini, har bir sohani tanqidiy tahlil qilgan holda, mavjud muammolarni bartaraf etish lozimligini qayta-qayta takrorlab kelmoqda.

Xususan, Prezidentimizning joriy yilda ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda ham ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratdi, jumladan, professional ta'lim uchun mas'ul idoralar ko'payib ketgani uchun tizim rivojlanmayotganligi, ish beruvchilar va texnikumlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish lozimligini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, oliy ta'limda qamrov keskin oshganligi, sohaga xususiy sektor kirib kelganligi, biroq sifatga yetarli e'tibor qaratilmayotganligi, jumladan, talabalarning mustaqil ishlashi uchun muhit barcha oliygohlarda ham birdek namunali tashkil etilmaganligi, aksariyat kollej va texnikumlar ham, oliygohlar ham ish beruvchilar talabi bilan hisoblashmayotganligi, ayrimlarida darslik va adabiyotlar yetishmasligi va borlari ham bugungi talablarga javob bermasligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Prezidentimiz so'nggi yillarda ilm-fanga yo'naltirilgan mablag'lar haqida to'xtalar ekan, ilm-fan va innovatsiyalarga so'nggi yetti yilda 6 trillion so'mdan ziyod mablag' ajratilganligi, ammo ilm-fanda "xarajat – tadqiqot – mahsulot" degan formula ishlayotganini qayd etib o'tdi.

Shu bilan birga, o'z ma'ruzalarida ayrim rektorlarda tashabbus, intilish, fidoyilik yetishmayotgani ko'rsatib o'tildi [3]. Ta'lim tizimi orasida oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyot tarmoq va sohalariga asosiy mutaxassis kadrlarni yetkazib berishini hisobga olgan holda mamlakatda bu sohani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Shu boisdan ham oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish, miqdor ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichiga erishish, ushbu sohani samarali moliyalashtirish mexanizmini yaratish, oliy ta'lim sohasida raqobatni kuchaytirish, davlat tomonidan davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalarini birday qo'llab-quvvatlash, sharoitlar yaratish maqsadga muvofiq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarining mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rnini o'rganish bo'yicha bir qator mahalliy va xorijlik olimlar o'z tadqiqotlarini olib borishgan. I. Syladi, Y. Babaianlar o'z tadqiqotlarida mamlakatda oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishning bir qator tamoyillarini, jumladan, insonparvarlik, o'zgaruvchanlik, innovatsion boshqaruv, demokratizatsiya hamda xalqaro integratsiyani ajratib ko'rsatishgan [4].

N. Badriddinov hamda D. Gorobetslar o'z tadqiqotlarini oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholashga yo'naltirgan bo'lib, o'z tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholashni quyidagi me'zonlar bo'yicha ajratishni taklif etadi:

- litsenziyalash va akkreditatsiya talablariga muvofiqligini baholash;
- ta'lim xizmatlarining sifati va bitiruvchining kasbiy ko'nikmalari (fazilatlar, sifati);
- byudjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligi;
- oliy ta'lim muassasalari xizmatlarini tijoratlashtirishning samaradorligi;
- oliy ta'lim muassasasining reytingi [5].

M. Suraeva, O. Andreevlar esa o'z tadqiqotlarida mamlakat taraqqiyotida inson kapitali, xususan, ta'lim tizimini samarali tashkil etish, uning samarali faoliyat yuritishda investitsiyalarning o'rnini tatqiq etishgan [6].

C. Hoareau, Jo Ritzen va G. Marconilar Yevropaning 32 ta mamlakatidagi oliy ta'lim va iqtisodiy innovatsiyalarni tahlil etish natijasida shunday xulosaga kelishganki, unga ko'ra Yevropaning innovatsion rivojlangan mamlakatlarida oliy ta'limga davlat investitsiyalarini ko'proq kiritish (xoh davlat, xoh xususiy oliy ta'lim muassasalari bo'lsin) mamlakatning asosiy siyosatlaridan birini tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqot natijasiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarining avtonomiyasi ularning ilmiy tadqiqot natijalari, reyting ko'rsatkichlari va bitiruvchilarning ish bilan bandligi ko'rsatkichlariga bog'liq ekanligini ko'rish mumkin [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini olib borishda mantiqiy fikrlash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash hamda analiz va sintez kabi usullardan foydalanilgan. Mavjud metodologik yondashuvlarga tayangan holda ilmiy xulosalar shakllantirilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim va iqtisodiy o'sish o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqlik borligi bir qator olimlar tomonidan ta'kidlab o'tilgan. Oliy ta'lim orqali insonlarning fikrlash doirasi, dunyoqarashi kengayishi bilan bir qatorda, oliy ma'lumotli, salohiyatli ishchi kuchining shakllanishi natijasida qo'shimcha qiymat yaratilish jarayoni yuzaga keladi. Buning natijasida, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti oshadi, aholi yuqori daromadga erishadi, byudjet daromadlari oshadi, aholi turmush darajasi yaxshilanadi va hokazolar.

Aksariyat mamlakatlarda davlat barcha fuqarolariga boshlang'ich ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash majburiyati mavjud, biroq umuman bepul ta'limni ta'minlashga davlat majbur deya fikrlash noto'g'ri bo'ladi, chunki turli siyosiy va iqtisodiy tizimlarda sifatli oliy ta'limga turlicha munosabatlar mavjud va ularning aksariyatida oliy ta'lim pullik hisoblanadi. Jumladan, ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchi bo'lgan AQShda oliy ta'lim faqat to'lov-kontrakt asosida ta'minlanadi va uning narxi nafaqat O'zbekiston va hatto Yevropa mamlakatlaridagi shunga o'xshash dasturlardan bir necha baravar yuqori hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning deyarli 14,1 % aholisi (2021-yilda 16 yosh va undan kattalarning) oliy ma'lumotli hisoblanadi [8]. Quyidagi jadvalda O'zbekiston aholisi ta'lim darajasi ko'rsatilgan (1-jadval).

1-jadval. Aholining ta'lim darajasi va YaIM o'zgarish ko'rsatkichi (%da)

Ta'lim darajasi / Yillar	Oliy	O'rta-maxsus, kasb-hunar	O'rta	Boshlang'ich va quyi	YaIM o'sishi
2018	13,6%	51%	35,3%	0,1%	5,5%
2019	13,6%	55,3%	31%	0,1%	6,0%
2020	13,9%	54,4%	31,7%	0,1%	2,0%
2021	14,1%	46,8%	39,1%	0,1%	7,4%
2022	14,1%	44,8%	41,1%	0%	5,7%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlandi.

Yana bir muhim ko'rsatkich – ta'limga davlat tomonidan yalpi ichki mahsulotning % nisbatida mablag' ajratilishi hisoblanadi. 2021-yil uchun O'zbekistonda 6,2 % [13], Rossiyada esa, bu ko'rsatkich 3,5%ga, Shvetsiyada 7 %, Fransiyada 5,2 %, hattoki ta'lim tizimining asosiy qismi xususiy lashtirilgan Buyuk Britaniyada 4,2%, AQShda 4,1%, Janubiy Koreyada 4% va Germaniyada esa 4,7%ni tashkil etadi [9].

Agar biz ta'limni foyda sifatida emas, balki kapitalning bir shakli deb hisoblasak, unda uning bir qator xususiyatlarini ta'kidlash kerak:

- ta'limga sarmoya kiritish uzoq muddatda kutilayotgan ijobiy samarani beradi;
- bilimning ham jamlovchi samarasi, ham eskiruvchi ta'siri bor;
- ta'lim har bir inson uchun shaxsiydir va uning ajralmas mulkidir.

Yuqoridagi xususiyatlarning har biri nimani anglatishini aniqlab olish kerak. Ta'lim ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir, chunki yetarli darajadagi kasbiy bilim va ko'nikmalarni olish uchun o'rtacha vaqt 4-6 yil ketadi. Investor nuqtayi nazaridan (ham davlat, ham xususiy) agar xavf va noaniqlik mavjud bo'lsa, aktivga sarmoya kiritish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilish qiyin [10]. O'rtacha rejalashtirish gorizonti har qanday ta'lim loyihasi ko'rinadigan natijalarni keltira boshlagan vaqtdan sezilarli darajada qisqaroq hamda bu nafaqat aktivlarni kamroq xavfli va tezroq daromadli joylashtirish uchun muqobil variantlarga ega bo'lgan xususiy investorlarga, balki davlatning o'ziga ham tegishli, bu barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli istiqbolga ega bo'lishi lozim. Bu farq moliyaviy tizimdagi yuqori xavflar (vaziyatning beqarorligi, valyuta kursining o'zgarishi, inqirozli vaziyatlar), shuningdek, ta'limni o'z vaqtida tugata olmagan odamlar ulushining ancha yuqori ekanligi sababli yuzaga keladi.

Ishchilarning o'zlari o'z kasbiy malakalarini oshirish zarurligini anglab, mehnat bozoridagi vaziyat sezilarli darajada yaxshilanishini kutgan holda, ularning rivojlanishiga sarmoya kiritishga tayyor, lekin har doim ham o'zlari ta'lim olish uchun katta vaqt va moliyaviy xarajatlarni qoplay olmaydilar. Ish beruvchi, o'z



navbatida, mavjud xodimni o'qitish xarajatlarini o'z zimmasiga olishga tayyor emas, chunki unga mehnat bozorida malakaliroq yangi xodimni yollash imkoniyati mavjud. Bilim va ko'nikmalarning yig'indisi shaxsning hayoti davomida ushbu turdagi kapitalga investitsiya qilishning maqbul sxemasini yaratishga imkon beradi. Ta'lim sizga professional kompetensiya allaqachon qurilgan va takomillashtirilgan bazani yaratishga imkon berganligi sababli investitsiyalarning maksimal oqimi inson hayotining dastlabki bosqichlarida aniq taqsimlanishi kerak, ya'ni investorlar nuqtayi nazaridan ko'proq yosh avlodga e'tibor berish zarur, chunki kapitalning unumdorligi ertaroq oshadi va kerakli natijani uzoqroq davom ettiradi [11].

Ta'lim sohasining o'zida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bilan birga yuqori saviyali mutaxassislar uchun ham bo'sh ish o'rinlari bo'lishi shart. Afsuski, mamlakatimizda ko'plab mutaxassislar nafaqat o'z mutaxassisligidan tashqari, balki ularning bilim va malaka darajasiga mos kelmaydigan lavozimlarda ham ishlashga to'g'ri kelmoqda. Bu, birinchi navbatda, o'rta darajadagi mutaxassislarning yetishmasligi, shuningdek, yuqori darajadagi mutaxassislarning ish haqi darajasi va ularning kutganlari o'rtasidagi nomuvofiqlik bilan bog'liq [12].

Zamonaviy dunyoda iqtisodiyotni raqamlashtirish va ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish tendensiyasi, shuningdek, tovar iqtisodiyotidan xizmatlar iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va gullab-yashnash jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy rivojlanishning ushbu paradigmasida O'zbekistonda ta'lim resurslari va texnologik ishlab chiqarishning aniq yetishmasligi mavjud bo'lib, bu yanada zamonaviyroq rivojlanish strategiyalariga izchil o'tish imkonini beradi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda O'zbekiston 2022-yilda raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston YalMdagi ulushi 2020-yilga nisbatan 1,99 foizdan 2,77 foizga o'sdi [13], rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 5-12 foizni tashkil etadi va ish bilan band odamlarning ulushi AKT sektori 3-5% ni tashkil qiladi [14].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, butun dunyoda, xususan, O'zbekistonda mehnat bozori va ta'lim sohasidagi vaziyatni tahlil qilib, iqtisodiyotni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish uchun zarur bo'lgan barqaror rivojlanish kontsepsiyasini amalga oshirish uchun joriy vaziyatni innovatsion yondashgan holda o'zgartirish choralarini ko'rish zarur degan xulosaga keldik.

Mamlakatni iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi kadrlarni tayyorlash uchun, albatta, ta'lim sifatiga ham alohida e'tibor qaratish, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish ham asosiy maqsadlardan biriga aylanmogi lozim. Hozirgi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining deyarli barchasi kredit-modul tizimiga asoslangan. Shunday ekan, ushbu tizimning samarali natija berishi uchun uning barcha shartlarini va talablarini oliy ta'lim tizimiga to'liq joriy etish zarur. Oliy ta'lim muassasalari qabul jarayonlarini takomillashtirish, davlat grantlari ajratish mexanizmini qayta ko'rib chiqish, muddatli, to'liq, qisman davlat grantlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Insonga zamonaviy iqtisodiyotning asosiy kapitali sifatida tayangan holda bilim va ko'nikmalarni to'plash va yangilash uchun shart-sharoit yaratish, uzluksiz ta'lim konsepsiyasini hayotga tatbiq etishga e'tiborni qaratish va barcha mamlakat fuqarolarining oliy ta'limdan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash zarur. Shunday qilib, nafaqat yosh avlod, balki ish beruvchilar o'rtasida ham ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, yuqori malakali ishchilar uchun ish o'rinlari yaratish va ularni ichki mehnat bozoriga jalb etish zarurligini aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduvoxidov A. & Kamilova S. (2023). Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 1(4), 12–21.
2. Qodirova L. Inson kapitaliga e'tibor — asosiy vazifa. <https://yuz.uz>
3. <https://www.gazeta.uz>
4. Syladii I., Babaian Y., Kanishevskaya L., Shakhrai V. & Berbet V. (2023). Innovative development of the higher education institution: management mechanisms. Revista Eduweb, 17(3), 257-269.
5. N. Badrtdinov, D. Gorobets Evaluation of the effectiveness of management development institutions of higher education on the basis of the factor and criterion model. International journal of environmental & science education 2016, VOL. 11, NO. 18, 12167-12182.
6. M.S uraeva, O. Andreev Current Trends in Innovative Development of Higher Education. Eurasia: Sustainable Development, Security, Cooperation – 2019.
7. Cecile Hoareau¹, Jo Ritzen and Gabriele Marcon, Higher education and economic innovation, a comparison of European countries. Hoareau et al. IZA Journal of European Labor Studies 2013.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining "O'zbekistonda ta'lim – 2019-2022" to'plami. Toshkent 2023.
9. Образование в цифрах: 2023 : краткий статистический сборник / Т. А. Варламова, Л.М. Гохберг, О. К. Озерова и др.; Нац. исслед. ун-т "Высшая школа экономики". – М. : ИСИЭЗ ВШЭ, 2023. – 132 с. – 350 экз. – ISBN 978-5-



7598-3004-7 (в обл.).

10. Астаханова Р.А. Инвестиции в образование: теория и методология // Фундаментальные исследования. – 2018. – № 1. – с. 24-28.
11. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/education-index-by-country>
12. Wang Y., Liu S. Education, Human Capital and Economic Growth: Empirical Research on 55 Countries and Regions (1960-2009) // Theoretical Economics. – 2016. – № 6. – p. 347-355.
13. <https://www.gazeta.uz>
14. Официальный сайт Организации экономического сотрудничества и развития. [Электронный ресурс]. URL: <https://data.oecd.org/education.htm> (дата обращения: 15.10.2019).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

